

1-MAVZU
SENTYABR

“MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

3-HAFTA MASHG‘ULOTI

O‘ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK YILLARIDAGI YUTUQLARI VA 2017
YILDAN BUYON AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Mashg‘ulot maqsadi: o‘quvchilarda O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi yutuqlari, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, ta‘lim, madaniyat va infratuzilmadagi o‘zgarishlar haqida tushuncha hosil qilish, 2017 yildan keyingi islohotlar mazmunini anglatish.

Metodikalar: suhbat, savol-javob, muhokama, taqqoslash, ijodiy topshiriq.

Asosiy tushunchalar: mustaqillik, taraqqiyot, islohot, Yangi O‘zbekiston, ta‘lim, infratuzilma, yoshlar imkoniyatlari

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi mashg‘ulotni savol-javob asosida boshlaydi: “So‘nggi yillarda maktabingizda qanday o‘zgarishlarni ko‘rdingiz?”, “Mahallangizda qanday yangi binolar, yo‘llar yoki sport maydonchalari barpo etildi?”, “Mamlakatdagi o‘zgarishlar insonlar hayotiga qanday ta‘sir qiladi?”. Ushbu savollar orqali o‘quvchilarning islohotlar haqidagi dastlabki tasavvurlari aniqlanadi.

Asosiy qism

O‘qituvchi mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ta‘lim muassasalari, yo‘llar, uy-joylar, tibbiyot va sport inshootlari, madaniyat markazlari barpo etilgani, shahar va qishloqlar qiyofasi o‘zgarganini tushuntiradi.

Ta‘lim, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida ham muhim yutuqlarga erishilgani, maktablarning sharoiti yaxshilanib, raqamli ta‘lim resurslari, fan olimpiadalari, tanlovlar va yoshlar uchun imkoniyatlar kengayib borayotgani qayd etiladi.

2017 yildan keyin mamlakatda ochiqlik, xalq bilan muloqot, inson manfaatlarini ta‘minlash, davlat xizmatlarini soddalashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim sifatini oshirish va yoshlar imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilayotgani tushuntiriladi.

O'qituvchi xulosa sifatida mamlakat taraqqiyoti har bir fuqaroning faolligi, bilimi, mehnati va mas'uliyati bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1-4-SINFLAR Maktabingizda sizga yoqadigan qanday sharoitlar bor? Mahallangizda qanday yangi joylar qurilgan?

5-7-SINFLAR Mustaqillik yillarida O'zbekistonning qanday yutuqlarini bilasiz? Islohot deganda nimani tushunasiz?

8-9-SINFLAR So'nggi yillardagi qaysi o'zgarishlar yoshlar hayotiga ta'sir qilmoqda? Mamlakat taraqqiyotida yoshlarning o'rni qanday?

10-11-SINFLAR Yangi O'zbekiston islohotlarining asosiy mazmuni nimada? Islohotlar samaradorligi fuqarolar faolligi bilan qanday bog'liq?

AMALIY TOPSHIRIQ

1-4-SINFLAR "Men ko'rgan yangiliklar" mavzusida maktab yoki mahalladagi ijobiy o'zgarishni aks ettirgan rasm chizadilar.

5-7-SINFLAR Maktab yoki mahallasida kuzatgan 3 ta ijobiy o'zgarishni qisqacha yozadilar.

8-9-SINFLAR "Mustaqillik yillaridagi yutuqlar" mavzusida ta'lim, sport, madaniyat va infratuzilma bo'yicha jadval tuzadilar.

10-11-SINFLAR "Islohotlar va yoshlar imkoniyatlari" mavzusida qisqa tahliliy matn yozadilar.